

**JAHON OLTIN BOZORLARI VA OLTIN BILAN
OPERATSIYALAR**

Inomaliyev Shohruh –

*Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali,
Bank ishi va audit yo‘nalishi 21-07 guruh talabasi*

Maxmudov Sirojiddin Abdullayevich –

*Samarqand Davlat Universiteti
Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi (ilmiy rahbar)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oltinning iqtisodiy ahamiyati, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari va jahon oltin bozorlarining ishlash mexanizmlari yoritilgan. Maqolada oltinning jahon iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirlari va iqtisodiy o‘sishga ta’sirlari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola oltinning iqtisodiy ahamiyati va jahon oltin bozorlarining faoliyatini puxta o‘rganishga bag‘ishlangan.*

Abstract: *This article covers the economic importance of gold, its historical development stages and the working mechanisms of world gold markets. The article describes in detail the effects of gold on the world economy and its effects on economic growth. The article is devoted to a thorough study of the economic importance of gold and the activity of world gold markets.*

Kalit so‘zlar: *Oltin, iqtisodiy ahamiyat, jahon oltin bozorlari, iqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya, valyuta zaxiralari, jahon bozorlari, ichki erkin bozorlar, nazorat ostidagi maqalliy bozorlar, qora bozorlar.*

Key words: *Gold, economic importance, world gold markets, economic stability, inflation, currency reserves, world markets, domestic free markets, controlled local markets, black markets.*

Oltin lotincha “aurum” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “charaqlash” degan ma’noni anglatadi. Oltin insonga ma’lum bo‘lgan dastlabki metallardan.

Arxeologik topilmalardan Oltin buyumlarning mil.dan 5—4 ming yil ilgari yasalgani ma'lum bo'ldi. Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoyda miloddan avvalgi 3—2 ming yilliklarda Oltin qazib olingan va undan turli buyum va bezaklar ishlangan, keyinchalik tanga pul zarb qilingan. Oltin bozorlari - bu, oltin savdosining maxsus markazlari. Ushbu bozorlarda sanoat-maishiy iste'mol, xususiy iste'mol, investitsiya, tavakkalchilik, chayqovchilik, xalqaro hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan valyutani sotib olishni sug'urtalash maqsadida oltinni bozor bahosidagi muntazam oldi-sotdisi tashkil etilgan. Bozordagi oltin taklifi manbasining asosiy qismini (80%) uning yangi ishlab chiqarilgan hajmi tashkil etadi. Jahon oltin bozorlarida yirik va kichik hajmdagi standart oltin quymalar sotiladi hamda sotib olinadi. Ular qatoriga: 995 probadan kam bo'lmagan va hajmi 400 troya untsiyasida (12,5 kg) xalqaro turdagi quymalar, og'irligi 900 grammdan 916,6 grammgacha bo'lgan yirik quymalar kiradi.

Oltin qadimdan iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Uning quyidagi asosiy iqtisodiy ahamiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Tovar puli sifatida: Uzoq vaqtlar mobaynida oltin tovar puli vazifasini bajargan. Uning nodir va saqlanuvchanligi, hamda barcha mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishi tufayli u savdo va ayirboshlash uchun ishonchli vositaga aylangan. Bugun oltin asosan valyuta zaxirasi hisoblanadi, ammo ayrim mamlakatlarda u qonuniy to'lov vositasi sifatida qabul qilinadi.

- Valyuta zaxiralari: Markaziy banklar tomonidan oltin valyuta zaxiralari sifatida saqlanadi. Oltin davlatlar sarmoyasining muhim qismini tashkil etadi va mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Ayrim mamlakatlarda valyuta muomalalarida oltin muhim rol o'ynaydi.

- Investitsiya aktivi: Oltin ko'plab investorlar uchun muhim investitsiya aktividir. U inflyatsiyaga qarshi himoya va portfelni diversifikatsiya qilish vositasi hisoblanadi. Iqtisodiy nomuayyanlik davrlarida oltin narxlari odatda oshadi, shuning uchun u sarmoyadorlar uchun beparvo investitsiya hisoblanadi.

- Sanoat mahsuloti: Oltin elektronika, aviatsiya, tibbiyot va kosmetika sanoatlarida keng qo'llaniladi. Uning fizik xususiyatlari, masalan, yuqori elektr va issiqlik o'tkazuvchanligi, korroziyaga chidamliligi uni noyob modda qilib qo'yadi. Shu bilan birga, u bezak buyumlarida ham keng ishlatilib kelinadi.

- Boylik belgisi: Uzoq vaqtlar davomida oltin boylik va mavqe ramzi bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham u status ramzi sifatida qadrlangan va ko'p sonli xaridorlarga ega.

- Ruhan va madaniy qadriyat: Ko'plab madaniyatlarda oltin muqaddas narsa hisoblanadi va u tarixiy, ruhan hamda madaniy ahamiyatga ega. Masalan, buddizmda u nurga tenglashtiriladi.

, oltin iqtisodiyotga quyidagi yo'llar bilan ta'sir ko'rsatadi:

- Savdo balansiga ta'sir qiladi: oltin eksport va importi savdo balansi ko'rsatkichlariga ta'sir etadi.

- Iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiladi: davlat oltin zaxiralari valyuta sohasidagi barqarorlikni ta'minlaydi.

- Markaziy bank siyosatiga ta'sir qiladi: markaziy banklar valyuta bozorlari va ssuda foizlarini oltin narxlariga qarab tartibga soladi.

- Portfel diversifikatsiyasi: sarmoyadorlar uchun oltin portfellarga diversifikatsiya kiritish Shuningdek vositasi hisoblanadi.

Oltin bozori tashkiliy jihatdan oltin bilan bitimlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan bir nechta banklardan tashkil topgan konsortsiumdan iborat. Ushbu banklar sotuvchi va sotib oluvchilar o'rtasida vositachilik operatsiyalarini amalga oshirgan holda o'zida mijozlar buyurtmalarini to'playdi, ularni solishtiradi hamda o'zaro kelishilgan shartlarga muvofiq o'rtacha bozor bahosi darajasini qayd etadi (odatda bir kunda ikki marotaba). Bundan tashqari maxsus firmalar oltinni tozalash va saqlash, quymalar yasash ishi bilan shug'ullanadi.

Jahonda 50dan ziyod oltin bozorlari mavjud, ulardan 11tasi G'arbiy Yevropada (London, Syurix, Parij, Jeneva va boshqalar), 19tasi Osiyoda (masalan Bayrut, Tokio), 14tasi Amerikada (AQShda -5), 8tasi Afrikada joylashgan.

Jahon oltin bozorlari jahon miqyosida oltin savdosi amalga oshiriladigan asosiy markazlardir. Ular quyidagilardan iborat:

- London oltin bozori (LBMA) London jahonning eng yirik oltin bozori hisoblanadi. U jahon oltin eksporti va importining taxminan 80 foizini qoplaydi. London oltin bozori OTC bozor bo'lib, unda kuniga \$30 milliardga yaqin oltin savdosi amalga oshiriladi. Ushbu bozor tomonidan oltin narxi belgilanadi va u jahon bo'ylab tan olingan.

- Nyu-York naqd oltin bozori (COMEX) COMEX Nyu-York tovar birjasining tarkibiy qismi bo'lib, u erda oltin shartnomalar (future'lar) va opsiyonlar savdosi amalga oshiriladi. Uning savdo hajmi kuniga taxminan \$30 milliardga yetadi.

- Zurich oltin bozori Zurich Shveysariyaning asosiy oltin savdo markazidir. Bu erda kuniga \$10 milliardga yaqin oltin savdosi amalga oshiriladi. Shuningdek, Zurich ko'pgina yirik banklar va sarmoya fondlarini jalb etadi.

- Dubay oltin bozori Dubay Yaqin Sharqning eng yirik oltin savdo markazidir. Bu yerda asosan oltin tayoqcha va tangalar savdosi amalga oshiriladi. Uning yillik savdo aylanmasi \$75 milliardga yetadi.

- Singapur oltin bozori Singapur Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining eng yirik oltin savdo markazi hisoblanadi. Bu yerda fizik oltindan tashqari, oltin shartnomalar ham savdolanadi.

- Shanxay oltin bozori Shanxay hozirda Xitoyning eng yirik oltin bozori bo'lib, u yiliga taxminan 2000 tonnaga yaqin oltin savdosini amalga oshiradi. Bu bozor kelajakda jahon oltin bozorida yetakchi rolni o'ynashi mumkin.

Davlat tomonidan joriy etilgan rejimga bog'liq holda oltin bozorlari 4 toifaga bo'linadi:

1) jahon bozorlari (London, Syurix, Nyu-York, Chikago, Gonkong, Dubay va boshqalar);

2) ichki erkin bozorlar (Parij, Milan, Stambul, Rio-de-Janeyro);

- 3) nazorat ostidagi maqalliy bozorlar (Afina, Qohira);
- 4) qora bozorlar.

1975 yilda AQSh fuqarolariga oltin bilan operatsiyalarni amalga oshirishga bo'lgan 40 yillik taqiqning bekor qilinishi munosabati bilan jahon oltin bozorlari ichida Nyu-York va Chikago oltin bozorlari oldinga chiqib, peshqadamlik qila boshladi. 1980 yildan boshlab Nyu-York jahonning yetakchi oltin bozoriga aylandi. Oltin narxlari asosan talab va taklifga, geosiyosiy holatga, inflyatsiya darajasiga, foiz stavkalariga va boshqa makroiqtisodiy omillarga bog'liq holda belgilanadi. Operatsionvaqt mobaynida oltin narxi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Oltin bozorlari faoliyati turli qonunlar va me'yorlar bilan tartibga solinadi. Xususan, London oltin bozori faoliyati LBMA tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu qoidalar savdoning shaffof va adolatli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa

Hozirgi davrda oltin bozorlari iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylanib qoldi. Oltin nafaqat qimmatbaho buyum, balki sarmoya ob'ekti, valyuta zaxirasi, makroiqtisodiy omil va boshqa ko'plab funksiyalarni bajaradigan muhim iqtisodiy vositadir. Shuning uchun ham oltin bozorlari barcha davlat va iqtisodiyotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham oltin bozorlari faoliyatini kuzatish va tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Oltin savdosi hajmi, narxlari va boshqa ko'rsatkichlarni o'rganish iqtisodiyotni boshqarishda muhim manba vazifasini o'taydi. Oltin bozorlari mahalliy va global iqtisodiy hodisalarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.D.Allado'stov, Jahon moliya bozorining tarkibi va rivojlanish xususiyatlari. 2016-yil
2. S. S. G'ulomov, BOZOR IQTISODIYOTI. 2005-yil
3. Abdullayev. A.J, Qayimov Z. A, Boltayev Sh. Sh, Narziyeva D. M Buxoro, 2021-yil.

4. Abdullayeva. Sh “Pul, kredit va banklar” darslik, Toshkent 2003-yil
5. www.wikipedia.org - Ensiklopediya.
6. www.qomus.info - Onlayn ensiklopediya.
7. www.hozir.org - Ma'lumotlar majmui.